

## **BOSHLANG`ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*N.U.Bo'ronova*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya  
nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim) magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni texnologiya darslarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish, texnologiya fanining ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Motiv, usul, o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, AKT vositalari.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о значении технологии науки и эффективной организации профориентационной работы учащихся в технологических классах.

**Ключевые слова:** Мотив, метод, игры, педагогические технологии, средства ИКТ.

**Abstract:** This article provides information on the importance of technology science and the effective organization of vocational guidance for students in technology classes.

**Key words:** Motive, method, games, pedagogical technologies, ICT tools.

O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo'llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Yaqindagina O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Oliy talim vazirligi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan hamkorlikda "Uzluksiz ta'limda texnologiya fanini takomillashtirish va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali hayotga tayyorlash" mavzusida Respublika online ilmiy amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Konferensiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri "O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda texnologiyalarning ahamiyati va o'rni" mavzusidir.

Darhaqiqat, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda texnologiya fanining o'rni juda katta. Masalan: 1- sinfdan texnologiya darslarida oddiy uy-ro'zg'or asboblari bilan tanishtirish, turli o'yinchoqlar yasash jarayonida o'quvchilarda dizaynerlik, quruvchilik, tikuvchilik, naqqoshlik kasblariga qiziqish uyg'ona boradi va keyingi

sinflarda bu kasblar soni yanada orta boradi. Turli kasblarga bo'lgan havas esa 2-3 sinflarda kasblarni tanlashga aniq yo'nalishga ega bo'ladi. O'quvchilar texnologiya fanlarida turli kasblar to'g'risida ularni egallash yo'llari, ma'suliyati, muvaffaqiyati to'g'risida, kasblarni turmushdagi ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oladilar.

Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg'onaga tashrif chog'ida Xalq ta'limi vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 3 sinfdan boshlab o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Prezidentning Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatovga bergan ko'rsatmasiga ko'ra 2020-2021 o'quv yilidan 2 sinfdan boshlab o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlanadi. 2, 3, 4 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib boriladi. sinfda ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi.

Uzluksiz ta'limda umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish mashg'ulotlarini quyidagi mazmunda va shaklda tashkil etiladi. Kasbga qiziqish bosqichlari, Qiziqishning mayliga va maqsadiga aylanish jarayoni, qiziqish, mayl qobiliyatlarini kasb tanlashga ta'siri, irodaviy sifatleri ( dadilligi, qa'tiyatligi ) o'ziga va o'z qobiliyatiga ishonchi, kasb tanlashda onglilik va mustaqillik, o'z - o'zini tarbiyalash va kasb tanlash mohiyati, kasblarning murakkablik omillari, kasbga yaroqlilik, kasb tanlashga talab qilinadigan shart- sharoitlar, qiziqish va mayllar, salomatik va boshqa sifatleri aniqlash texnologiya fanlarining asosini tashkil qiladi. Shunday ekan texnologiya fanini o'qitishga e'tiborli bo'lishimiz lozim. Bu fanni farzandlarimizga kasb o'rgatishda, hayotda o'z o'rnilarini topishda ahamiyati katta. Hozirgi 2023-yilda yangi nashrda chiqqan kitoblarimizning barchasi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa texnologiya kiobida judayam ajoyib narsalarni tayyorlash texnikalari berilgan. Unda o'quvchilarni quruvchilik, uchuvchilik, rassomlik, tikuvchilik, naqqoshlik kabi turli xil kasb-hunarlarni egallashga bo'lgan qiziqishlari inobatga olingan. Kuni kecha tabiiy fanlar fani o'qituvchilari bilan birgalikda „Hosil bayrami“ tadbirini o'tkazdik. Unda o'quvchilarimiz sabzavotlarni, mevalarini archish to'g'rash usullarini yanada mukammal o'rgandilar. Har bir o'quvchi texnologiya fanida tanlayotgan kasbi o'zi uchun ham, jamiyat rivojlanishi uchun ham ahamiyatga ega ekanligini his qilmog'i lozim. Buning uchun, albatta, biz o'qituvchilar o'quvchilarni to'g'ri yo'lga solishimiz, qo'limizdan kelgancha yordam berishimiz kerak.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy

masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi.

Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi.

Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash lozim.

Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz. Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil toplashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, ham xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari zaruratini hisobga olish kerak. O'quvchilar shaxsini shakllantirishning omili sifatidagi mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishga kasb tanlash ishlarining puxta o'ylab tashkil qilinishi katta rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yosh avlodlarimiz bamisoli bir novda uni qaysi tomonga yo'naltirsak o'sha tomonga o'sib unaveradi. Biz o'qituvchilar o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlay olishlariga yordam berishimiz kerak, chunki "Yangi O'zbekiston"ni parpo qilish biz yoshlarning qo'limizdadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nurova I.D. Mehnat ta'limi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – T., 2014.
2. Munavvarov T. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 1996.
3. Mavlonova R. A. Mehnat ta'limi metodikasi T.: O'qituvchi, 1986.